

FRANSIYA MUSTAMLAKACHILIK TIZIMI MOHIYATI VA UNING DARZ KETISHI

**Sh.Erkinova**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
Tarix yo'nalishi magistranti*

**Abstract:** *The foundation of France's colonial system, unlike England's, dates back to the Great Geographical Discoveries. Because in the advanced Middle Ages, the French kings struggled to centralize the country and because of this, they did not have enough potential and opportunities to colonize any area on the continent itself.*

**Keywords:** *“Declaration of Human and Citizen Rights”, colonial system, unequal contracts, Supreme Council of the Colonies, commune, district, The fourth republic*

**KIRISH**

Ispan va portugallarning geografik kashfiyotlaridan ruhlangan fransuz dengizchilari ham ummonosha ekspeditsiyalar uyushtirdi va XVI asrning o'rtalaridayoq Kanadani kashf qilishga muvaffaq bo'ldi. Yangi Fransiya Kompaniyasi ushbu hududlarni tasarruf etish maqsadida tashkil etildi. XVII asr boshlarida yana Shimoliy Amerikada yangi-yangi hududlarni ochish va uni egallash boshlab yuborildi. 1604-yilda bu yerda Akadeya, bir yil keyin Port-Royal koloniyalariga asos solindi. 1608-yilda Kvebekka asos solishdi<sup>65</sup>. 1642-yilda Monreal o'zlashtirildi. 1663-yilda Kanada fransuz tojining mustamlakasi deb e'lon qilindi. Asr so'nggiga qadar Luiziana, Gvadelupa, Martinika, San Domingo va bir qancha orollar egallandi. Boshqa tomondan Afrikada yangi hududlar mustamlakaga aylantirila boshlandi. XVII asr boshlarida Senegal daryosi va Gviniya qo'ltig'i oralig'idagi yerlarda bir qancha fransuz savdo faktoriya-qal'alari paydo bo'ldi. Bu hududlarni asoratga solish uchun inglizlardagi kabi Senegal, Gvineya kabi savdo kompaniyalari tuzildi. Shu asrning o'rtalaridan fransuz bosqinchilari Osiyoda paydo bo'lib, Hindistonning bir qancha orollarini qo'lga kiritdi. XVIII asr boshlariga kelganda Pondisher shahri fransuzlarning Hindistonni mustamlakaga aylantirishdagi tayanch nuqtasiga aylandi.

**Tahlil va natijalar.** Fransiya XVIII asrdagi inqiloblar davrida yangi hududlarga bosib olish to'xtab qoldi. Bunga muayyan darajada Fransiyaning o'zida sodir bo'lgan o'zgarishlar sabab bo'ldi. 1789-yilda qabul qilingan “Inson va fuqarolar huquqlari Deklaratsiyasi” bilan qullikning bekor qilinishi ortidan mustamlakalardagi mahalliy aholining fuqarolik huquqlari tengligi e'tirof etildi. 1793-yilgi Konstitutsiyada bo'lsa mustamlakalar rasman respublikaning tarkibiy qismi deb e'lon qilingan edi. Fransiyaning keyingi mustamlakachilik davri XIX asrning 30-yillaridan boshlandi. Jazoirni tobe etish uchun sal kam yarim asar sarfladi. 1991-yilda Tunis ustidan protektorat o'rnatildi. XIX asrning 30-yillaridan fransuzlar G'arbiy Afrikaga ham kirib kela boshladi. Bu yerda aldov, qurol kuchi, sotib olish, noteng shartnomalar orqali

<sup>65</sup> Литтлвуд, Йен. История Франции / пер. с англ. А. А. Бряндинской. – М.: АСТ: Астрель, 2008. – С. 80.

Gabon, Fil Suyagi Qirg'og'i, Senegalning ichki hududlari qo'lga kiritildi. XIX asrdan boshlaridan Fransiya Uzoq Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyoda mustamlakalar uchun harakat boshlaydi. Bu yerda ular bir necha o'n yil davomida Vetnamni, Kamboja hududlarini bosib oladi. Asr oxirida Laos ustidan protektorat o'rnatildi. Asr oxirida dunyoning yetakchi davlatlari orasida boshlanib ketgan "dunyoni qaytadan taqsimlash" siyosatidan Fransiya quruq qolmadi. 1896-yilda Madagaskar mustamlaka deb e'lon qilindi. Afrikaning ichki hududlarigacha kirib borib, Kongo, Niger, Ubangi va Shari daryolari, Chad ko'li havzasi hududlarini bosib oldi. 1899-yilda inglizlar bilan Tropik Afrikani bo'lib oladi. Shimoliy Afrikada katta hududlar, G'arbiy Sudan va Kongo daryosi havzasi fransuzlar qo'li ostiga o'tib qoldi. XX asr boshlarida bo'lsa Marokashning bir qismi ustidan protektorat o'rnatishi bilan amalda mustamlakachilik imperiyasini shakllantirish o'z nihoyasiga yetdi. Birinchi jahon urushi boshlarida Fransiya mustamlakachilik hududi 10,6 mln kv kmni tashkil qilib, u yerda 55,5 mln kishi istiqomat qilgan (metropoliyaning o'zi bo'lsa 0,5 kv kmni tashkil etgan va unda 39,6 mln kishi yashagan). Urush yakuni bo'lsa mustamlakachilik hududining yanada kengayishiga xizmat qildi. Germaniyadan Togo va Kamerunning katta qismini, Usmoniylar imperiyasidan Suriya va Livanni tortib olib, keyinroq mandatosti hududiga aylantirdi. Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan 1939-1945 yillarda Fransiya mustamlaka imperiyasi o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqadi. Uning hududi 12,347,000 km<sup>2</sup> maydonni egallagan, unda 68,69 million kishi istiqomat qilgan. Metropol hududini hisobga olgan holda, fransuz suvereniteti ostidagi hududi 12 898 000 km<sup>2</sup> (yer yuzining 1/10) ga cho'zilgan, 110 million kishi (dunyo aholisining 5%) yashagan<sup>66</sup>. Shu tariqa Fransiya ham huddi Britaniyadan keyin jahonning eng katta ikkinchi mustamlakachi davlatiga aylangan edi. Lekin Britaniyadan farqli ravishda u o'zi egallagan hududlarning muayyan qismini turli yillarda boshqalar foydasiga boy berib qo'ydi. Ulkan va turli xalqlardan iborat bo'lgan mustamlakalarni Fransiya qanday boshqargan va bunda o'ziga xos jihatlar nimalarda namoyon bo'ladi?

Birinchiidan, ingliz mustamlakachiligidagi bilvosita boshqaruvidan farqli ravishda fransuz mustamlakachiligida mahalliy yetakchilar kuchi bilan boshqarishga tayanilmagan, balki aksincha bevosita o'zlarining gubernatorlari orqali idora etgan.

Ikkinchiidan, XIX asr oxirida Fransiya imperiyasi mustamlaka mulklarini huddi inglizlardagi singari xom ashyo va ko'chirishga ajratmagan, tasnifning asosiy belgisi mustamlakani imperiyaga qo'shilishida edi. Ushbu mezonga ko'ra mustamlakalar 2 ga bo'lingan:

- 1) "eski"lar (Senegal, Kochichina, Martinika, Gvadelupa, Jazoir)
- 2) yaqinda tasarruf etilganlar (Sudan, Niger, Chad va boshqalar)

Uchinchiidan, Buyuk Britaniyadan farqli o'laroq, XIX asrdagi Fransiya mustamlakalari rasmiy ravishda departament tarzida imperiya tarkibiga kirgan, ya'ni imperiyaning tarkibiy qismi sifatida qaralgan. Bir nechta protektoratlar (Tunis,

<sup>66</sup> Французская колониальная империя // Большая российская энциклопедия 2004–2017 – [https://old.bigenc.ru/world\\_history/text/5911590](https://old.bigenc.ru/world_history/text/5911590)

Kambodja, Laos, Tonkin, Marokash), garchi ular tashqi hokimiyat atributlarini (davlat ramzlari, hukmdorlar unvonlari) saqlab qolgan bo'lsalar ham, amalda boshqa hududlar kabi tayinlanuvchi Fransiya ma'muriyati tomonidan boshqarilgan. Ya'ni an'anaviy hukmdorlarning vakolatlari fransuz mustamlakachi amaldorlariga o'tkazilgan.

To'rtinchidan, Fransiyaning o'zida 1894-yilgacha mustamlakalarni boshqarishga oliy hokimiyat darajasida tashqi ishlar vazirligi mas'ul bo'lgan bo'lsa, shu yildan e'tiboran maxsus mustamlakalar vazirligi tuzilib, uning qoshida Koloniyalar Oliy Kengashi faoliyati yo'lga qo'yilgan<sup>67</sup>.

Beshinchidan, mustamlakalar ma'muriy tuzilishi ham isloh etilgan va ular birinchi navbatda prefektlar idora etuchi okruglar, okruglar bo'lsa nisbatan kattaroq kommuna va kantonlarga bo'lingan. Har bir mustamlakalar gubernator tomonidan idora etilgan. Unga hududiy kesimda mustamlakachi mulozimlar boshqaruvda bo'ysingan. Quyi boshqaruv bo'g'inida (kommunalarda) bo'lsa mahalliy elita vakillari tayinlangan va ular imperiyaning rasmiy xizmatchilari sifatida qaralgan.

Oltinchidan, mustamlakalarda fransuz qonunlari va fransuz sud tizimi amalda bo'lgan. "Eski" mustamlakalarning an'anaviy elitalari Fransiya parlamenti - Milliy assambleyaga saylovlarda ovoz berishlari mumkin edi.

Yettinchidan, mustamlakachilikning dastlabki pallalarida huddi Britan mustamlakachilik tizimida bo'lgani singari yangi yerlarni o'zlashtirishda fransuz savdo kompaniyalari xizmatidan foydalanilgan.

Sakkizinchidan, mustamlakatlar doirasining kengayishi bilan ularni samarali idora etish maqsadida hududlarni birlashtiruvchi o'ziga xos ittifoq tarzidagi tuzilmalar tashkil etilgan. Masalan, 1887-yilda Janubi-Sharqiy Osiyodagi mustamlaka hududlarini birlashtirgan Hindixitoy ittifoqi tuziladi.

To'qqizinchidan, fransuz mustamlakachiligining ikkinchi bosqichida qo'lga kiritilgan hududlar, ayniqsa Jazoir va Senegal uchun o'ziga xos bo'lgan boshqaruv shakli bosqichma-bosqich, shart-sharoitlardan kelib chiqib tadbiiq qilina boshlangan. Jazoirning bir qismini egallagan vaqtida fransuzlar oldida turklardan, mavrlardan, arablardan va qora tanli qullardan iborat bu yangi mustamlakani qanday qilib idora etish masalasi ko'ndalang keldi. Garchi shu vaqtgacha mustamlakalar uchun muayyan boshqaruv tartibi joriy qilingan bo'lsa ham, ammo bu mukammal deb bo'lmas, eng asosiysi uni Jazoirga qo'llab bo'lmas edi. Dastlab (1848-yilda) bosib olingan hudud 3 ta departamentga bo'lingan (Oran, konstantin va Jazoir). Lekin tez-tez o'zgartiriluvchi gubernatorlar o'zlaridan kelib chiqib idora etishgan, ayrimlari mahalliy vakillar yordamiga ko'proq suyangan bo'lsa, boshqalari aksincha ishni qilgan. Napoleon III (1852-1870-yy.) davrida Jazoirdagi barcha kommunalar 3 ga taqsimlandi: yevropaliklar ko'pchilikni tashkil etuvchi, mahalliy aholi ko'pchilikni tashkil etuvchi va aralash. Yevropaliklar kommunalarida Fransuz poytaxti huquqlari amalda bo'lgan,

<sup>67</sup>Лисенков О.О. Империи нового времени:принципы управления колониями. Пример Британии и Франции // Genesis:исторические исследования. – 2020. – № 6. DOI: 10.25136/2409-868X.2020.6.33316 URL: [https://nbpublish.com/library\\_read\\_article.php?id=33316](https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=33316). – С.51

aralash va “mahalliy” kommunalarda arab byurosi faoliyat olib borgan. Barcha kommunalarda arab-fransuz boshlang‘ich maktablari tashkil etilgan. Qishloqlarda cheklangan tarzda bo‘lsada shariat sud tizimiga ruxsat berilgan. E’tiblorlisi, 1870-yildan boshlab mahalliy aholi uchun fransuz fuqaroligini olish birinchi marta joriy qilindi<sup>68</sup>. Huddi shunday 1880-yillarda Senegal hududidagi mahalliy aholi uchun, 1887-yildan Hindixitoy ittifoqi hududidagi mahalliy aholi uchun muayyan shartlar asosida fransuz fuqaroligini olish joriy qilindi. Shunday qilib Britan mustamlakachilik tizimidagi bilvosita boshqaruvdan Fransiya mustamlakachilik tizimi to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqaruv shakli bilan farq qilgan bo‘lsa ham, ammo bilvosita shakldan ham foydalangan. Jumladan, mahalliy yetakchi va sardorlar imperiyaning quyi bo‘g‘in xizmatchilari sifatida qaralgan va ular yangi boshqaruv tizimining bir qismiga aylangan. Tadqiqot davomida tahlil qilingan ma’lumotlarga tayangan holda Fransiya mustamlakachilik tizimining darz ketishini ko‘pchilik tarixiy adabiyotlarda qabul qilinganidek XX asrning ikkinchi yarmi sifatida qabul qilishdan biroz uzoqlashgan holda quyidagi bosqichlarda ham muayyan darajada mustamlakachilik tizimi inqirozi kuzatilgan degan to‘xtamga keldik. Birinchi marta, Yevropada Fransiya gegemonligi tugagan XVIII asrda. Yevropada urushlar (Ispan merosi va Yetti yillik urush) natijasida Fransiya Britaniya foydasiga Shimoliy Amerika va Afrikadagi qator hududlarni, Hindistonni (5 ta manzilni hisobga olmaganda) boy berib qo‘ydi. Aynan shu voqealar sabab Shimoliy Amerikadagi mustamlakachilikdagi yetakchilik inglizlar qo‘liga o‘tib ketdi. Ikkinchi inqirozli bosqichni Fransiya inqilobi va Napoleon urushlaridan keyingi davrlar bilan ko‘rsatish mumkin. Inqilob davrida qullikning bekor qilinishi haqidagi Dekret (1794-yilda) natijasida milliy ozodlik harakatlari kuchayib ketadi. 1804-yilda Gaiti mustaqillikka erishadi. Aksilfransuz koalitsiyalarining Napoleonga qarshi urushlari davrida ham Fransiyaning deyarli barcha mustamlakalari Britaniya tomonidan egallangan bo‘lsada, ammo Vena kongressi qarorlari bilan Fransiya ularning ko‘pchiligi qaytarib oldi: g‘arbiy yarimsharda Sent-Pyer va Mikelon, Gvadelupa, Martinika, Gviana orollarini, Hindistondagi beshta kichik aholi punktlarini saqlab qolgan. Reunion oroli, Senegaldagi kichik mulklar shular jumlasidandir. O‘sha paytda Fransiya mustamlakalarining umumiy hududi taxminan 30 ming km kv teng bo‘lgan. Nihoyat, uchinchi marta va bu safar oldingi mustamlakachilikning to‘liq boy berib qo‘yilishi XX asrning o‘rtalarida sodir bo‘ldi. Boshlangan ikkinchi jahon urushi va unda Fransiyaning mag‘lubiyatga uchrashi uning mustamlakasi ostida bo‘lib kelgan bir qancha xalqlarning milliy-ozodlik kurashlarini avj oldirib yubordi. Boshqa tomondan bo‘lsa, urushning payoni xalqaro hayotda kuchlar muvozanati tizimiga keskin o‘zgartirishlar kiritdi. Shuning barobarida jahonda ommaviy ravishda mustamlakachilik tizimining yemirilish jarayoni boshlanib ketdi. Urush natijasida g‘olib chiqqan koalitsiya tarafida bo‘lishiga qaramasdan Fransiyaning urushning oqibati

<sup>68</sup> Лисенков О.О. Империи нового времени: принципы управления колониями. Пример Британии и Франции // Genesis: исторические исследования. – 2020. – № 6. DOI: 10.25136/2409-868X.2020.6.33316 URL: [https://nbpublish.com/library\\_read\\_article.php?id=33316](https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=33316). – С.52.

bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy inqirozlar qamrab oldi. Bu jarayonni ayniqsa uning sobiq mustamlakalari, birinchi navbatda Jazoirda boshlanib ketgan va qurolli to'qnashuv darajasiga borib yetgan milliy-ozodlik kurashining avj olishi yanada keskinlashtirib yubordi. Birinchi bo'lib Suriya va Livan mustaqillikni qo'lga kiritdi. Aynan ularning mustaqillikka erishuvi so'nggi bosqich fransuz mustamlakachilik tizimining inqirozini boshlab berdi. Mandat ostidagi Suriya va Livanning mustaqillikka erishuvi 1940-yilda Fransiyaning Gitler Germaniyasi oldidagi mag'lubiyati, ikkinchi tomondan ingliz-fransuz raqobati bilan bevosita bog'liq edi. Gap shundaki, Suriya va Livanda Vishi ma'muriyati qulashidan oldinroq "Ozod Fransiya" qo'mitasi boshlig'i Sh. de Goll urushdan keyin ularga mustaqillik berishni va'da qilgandi. Uning bu bayonotini Britaniya qo'llab-quvvatladi<sup>69</sup>. Tarix olim K.A.Fursov XX asrga kelib mustamlakachilik tizimining inqirozini 3 ta asosiy bosqichda sodir bo'lganligini ta'kidlaydi (Bu ham ingliz, ham fransuz mustamlakachilik tizimi uchun xos): ular (Namibiya, Gonkong, Makao) shundan keyin ham saqlanib qolgan bo'lsa ham, ammo umuman olib qaraganda mustamlakachilik tizimining inqirozi ko'rsatilgan muddatga kelib tugab bo'lgandi<sup>70</sup>. Fransuz mustamlakachilik tizimining inqiroz bosqichlariga e'tibor qaratadigan bo'lsa, ayniqsa uning 2 va 3 bosqichlarida Fransiyaning o'zida ham keskin voqeliklar kuzatilganligini ko'rish mumkin, ya'ni mamlakat ichidagi siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar muayyan darajada mustamlakachilik tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bundan so'nggi bosqich ham chetda qolmadi. Hisob bo'yicha Fransiya siyosiy tuzumida qaror topgan To'rtinchi respublika (1947-1959) nafaqat Fransiyaning ichkaridagi, balki tashqi muammolarini ham hal qila olmaydigan holatga kelib qoldi. Bir paytlar Fransiyada nemis okkupatsiyaga qarshi kurashning markaziy figuralaridan biri bo'lgan va amalda Fransiyaning gitlerchilar Germaniyasiga qarshi kurashining qahramonlaridan biri va og'ir paytlarda millatning yetakchisiga aylangan general Sharl de Goll timsolida mamlakatni bu inqirozdan olib chiquvchi siyosiy arbobni ko'ruvchilar tarafdorlari borgan sari ko'payib bordi. Kun tartibidagi tangliklarni bartaraf eta olmagan hukumatga xalqning ishonchi yo'qolganidan de Goll tarafdorlari bo'lgan gollchilar ham foydalanib qolishdi. 1953-yilda RPF (Fransuz xalqi birligi) partiyasi tarqalgandan keyin general Shampan viloyatidagi o'zining Kolombe-le-dyoz-Eglizdagi uyida, siyosiy hayotdan nisbatan uzoq tarzda hayot kechirib kelayotgan edi. U bu paytda o'zining harbiy memuarlarini yozish bilan mashg'ul bo'lib, kamdan-kam holatlarda OAVda chiqish qilar edi. Jazoirdagi fransuz qo'shinlari va ikkinchi jahon urushini de Goll bilan yelkama-yelka bosib o'tgan generallar va zobitlar orasida ham de Gollni hokimiyatga qaytarish istagi borgan sari kuchayib bordi, chunki ular yolg'iz de Gollgina bu muammolarni hal qila olishiga ishonar edi. 1958-yil 29-may kuni Fransiya prezidenti vaziyat tang ahvoldaligini tushungan holda hukumatni de Gollga topshirish haqida bayonot berdi. Hukumatga qaytgan de Goll zudlik bilan Milliy

<sup>69</sup> Фурсов К. А. Деколонизация афро-азиатского мира: предпосылки, этапы, модели. ВОСТОК (ORIENTS) 2015, № 2. – С.10

<sup>70</sup> Фурсов К. А. Деколонизация афро-азиатского мира: предпосылки, этапы, модели. ВОСТОК (ORIENTS) 2015, № 2. – С.10

kengashdan o'ziga vaziyat tangligi uchun nisbatan cheklanmagan vakolatlar berishni so'rab murojaat qiladi va darhol Fransiyaning yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqishni boshlab yuboradi. Ushbu konstitutsiya 1958-yil 28-sentabrda umumxalq referendumini qo'yilib, unda saylovchilarning 79.25% yoqlab ovoz berishgan. Buning natijasida qabul qilingan Konstitutsiya hozirgi kungacha mamlakatning Bosh qonuni bo'lib kelmoqda. Mazkur konstitutsiya 1789-yildan buyon mamlakatda qabul qilingan 17 va 22 tuzumning asosiy qonuni bo'ldi. Shu tariqa Fransiyada Beshinchi Respublika davri boshlandi<sup>71</sup>.

**Xulosa.** Fransiyaning o'zining sobiq mustamlakalari bilan munosabatlarni saqlab qolish, siyosiy termin bilan aytganda "ta'sir doirasi" ostida ushlab turish harakatlari oson kechmadi. Tahlillar shuni ko'rsatib berdiki, o'zaro munosabatlarni siyosiy va harbiy jihatdan saqlab qolish juda qiyin kechdi, amalga oshirilgan ayrim "loyihalar" tugatildi. Madaniy jihatdan aloqalarni saqlab qolish va mustahkamlash samarador bo'lib chiqdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. История Франции: учебник для вузов/ М.Ц.Арзаканян, А.В.Ревякин, П.Ю.Уваров. – М: Дрофа. 2005.
2. Косенко С.И. Политика и система франкофонии в эпоху глобализации (европейские аспекты). // Вестник МГИМО–Университета. 2011. № 2.
3. Лисенков О.О. Империи нового времени: принципы управления колониями. Пример Британии и Франции // Genesis: исторические исследования. – 2020. – № . DOI: 10.25136/2409-868X.2020.6.33316 URL: [https://nbpublish.com/library\\_read\\_article.php?id=33316](https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=33316).
4. Лисенков О.О. Империи нового времени: принципы управления колониями. Пример Британии и Франции // Genesis: исторические исследования. – 2020. – № 6. DOI: 10.25136/2409-868X.2020.6.33316 URL: [https://nbpublish.com/library\\_read\\_article.php?id=33316](https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=33316). – С.52.
5. Литтлвуд, Йен. История Франции / пер. с англ. А. А. Бряндинской. – М.: АСТ: Астрель, 2008.
6. Соколова Н.В. Международная организация Франкофонии в системе внешней культурно-гуманитарной политики Францию // Вестник Русской христианской гуманитарной академии. 2014. Т.15. Выпуск 2.
7. Франкофония // Материал из Википедии
8. Франсафрика // Материал из Википедии
9. Французская колониальная империя // Большая российская энциклопедия 2004–2017 – <https://old.bigenc.ru/world history/text/5911590>

<sup>71</sup> История Франции: учебник для вузов/ М.Ц.Арзаканян, А.В.Ревякин, П.Ю.Уваров. – М: Дрофа. 2005. –393.

10. Фурсов К. А. Деколонизация афро-азиатского мира: предпосылки, этапы, модели. ВОСТОК (ORIENTS) 2015, № 2.